

## **MILLIY O‘ZBEK FOLKLORI ASOSIDA INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

**Maxsumova Maftuna Zoirjon qizi**  
**Navoiy Davlat Universiteti 2-kurs magistranti**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu tezisdagi milliy o‘zbek folklori - maqollar, ertaklar, topishmoqlar va xalq qo‘shiqlari - asosida ingliz tili darslarini tashkil etishning zamonaviy metodologik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Folklor materiallari kommunikativ, loyiha asosidagi va madaniyatlararo yondashuvlar bilan birlashtirilib, o‘quvchilarda ingliz tili kompetentligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi asoslanadi. Maqolda psixolingvistik nazariyalar asosida folklor ta‘limining ilmiy asosi yoritiladi, har bir folklor janrini darsga qo‘llashning aniq usullari taqdim etiladi hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, ingliz tili ta‘limi, kommunikativ kompetentlik, madaniyatlararo yondashuv, maqol, ertak, topishmoq, loyiha asosidagi ta‘lim, raqamli texnologiyalar.

### **ABSTRACT**

This thesis examines modern methodological approaches to organizing English language lessons based on national Uzbek folklore, including proverbs, fairy tales, riddles, and folk songs. It substantiates that integrating folklore materials with communicative, project-based, and intercultural approaches effectively develops students' English language competence. The paper presents the scientific basis of folklore-based language teaching grounded in psycholinguistic theories, outlines practical methods for incorporating each folklore genre into lessons, and explores opportunities for integration with digital technologies.

Keywords: folklore, English language teaching, communicative competence, intercultural approach, proverb, fairy tale, riddle, project-based learning, digital technologies.

### **KIRISH**

Bugungi globallashtirish davrida ingliz tilini o‘qitish milliy ta‘lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida (2020) va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tegishli farmonlarida xorijiy tillarni o‘rgatishda o‘quvchini faollashtiruvchi, amaliy yo‘naltirilgan usullarga o‘tish zaruriyati alohida ta‘kidlangan. Shunday ekan, an‘anaviy, grammatika-tarjima usulidan voz kechib, o‘quvchida haqiqiy kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradigan metodlarni izlash dolzarb masalaga aylandi.

Shu muammoni hal etishda milliy o‘zbek folklori noyob pedagogik resurs bo‘la oladi. Folklor – bu xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, donishmandligi va badiiy tafakkurining timsoli. Ertak, maqol, topishmoq, lapar va xalq qo‘shiqdarida til ham mazmunan, ham emotsional jihatdan boy, autentik shaklda namoyon bo‘ladi. Bunday materiallar til o‘rganuvchi uchun motivatsion muhit yaratishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tezisning maqsadi o‘zbek folklori asosida ingliz tili darslarini tashkil etishning zamonaviy ilmiy-metodologik yo‘llarini aniqlash, ularning nazariy asoslarini ochib berish hamda amaliy tatbiqini ko‘rsatishdan iborat.

### **ASOSIY QISM**

Folklor asosidagi til ta‘limining nazariy asoslari. Folklor materiallaridan til o‘qitishda foydalanishning ilmiy zamini bir necha yirik psixolingvistik va pedagogik nazariyaga tayanadi. S.D.Krashenning «Input Hypothesis» (Kirish gipotezasi) nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganuvchi o‘z darajasidan biroz yuqori, ammo emotsional jihatdan qulay bo‘lgan matn muhitida yanada tez va samarali o‘rganadi. O‘zbek folklori matnlari aynan shunday shart-sharoitni ta‘minlaydi: tanish syujetlar va tasvirlar orqali yangi inglizcha leksika va grammatik qurilmalar tabiiy yo‘l bilan o‘zlashtiriladi.

L.S. Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” (ZPD) konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi murakkab bilim va ko‘nikmalarni o‘qituvchi yoki tengdoshlar ko‘magida samaraliroq o‘zlashtiradi. Folklor namunalarining ko‘p ma‘noli va tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lishi o‘quvchilarga yangi tushunchalarni bosqichma-bosqich anglash imkonini yaratadi. Shu asosda tashkil etilgan scaffolding jarayoni o‘quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Govard Gardnerning “Ko‘p intellektlar” nazariyasi folklor janrlaridan o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga mos ravishda foydalanish imkonini beradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, musiqiy intellekti rivojlangan o‘quvchilar uchun xalq qo‘shiqdari, lingvistik qobiliyati kuchli o‘quvchilar uchun maqol va topishmoqlar, vizual-fazoviy intellekt egalari uchun esa ertaklar asosidagi rasm, jadval va sxemalar samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy metodologik yondashuvlar. Folklor materiallarini ingliz tili darsiga qo‘llashda quyidagi uchta zamonaviy yondashuv eng samarali hisoblanadi:

Kommunikativ til o‘qitish yondashuvi (Communicative Language Teaching – CLT)ning asosiy maqsadi o‘quvchilarda real muloqot jarayonida tilni qo‘llash kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. O‘zbek folklori namunalari ushbu yondashuv uchun boy kommunikativ muhit yaratadi. Jumladan, “Alpomish” dostoni asosida rolli o‘yinlar tashkil etish, “Uch og‘a-uka” ertagi mazmuni asosida ingliz tilida

dialog va vaziyatli muloqotlar tuzish hamda xalq maqollari yuzasidan munozaralar olib borish o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi. CLT yondashuvida o‘quvchi til ko‘nikmalarini majburiy mashqlar orqali emas, balki tabiiy kommunikativ ehtiyoj asosida egallaydi.

Loyiha asosidagi ta‘lim (Project-Based Learning — PBL) yondashuvi o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish orqali til ko‘nikmalarini integrallashgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbek folklori asosida “O‘zbek ertaklari antologiyasi” nomli inglizcha illyustratsiyali kitob yaratish, “O‘zbek va ingliz maqollarining qiyosiy lug‘ati”ni tuzish yoki “Xalq donishmandligi” mavzusida video hamda podkast tayyorlash kabi loyihalarni amalga oshirish mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil izlanish, jamoada ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi.

Madaniyatlararo yondashuv (Intercultural Approach) esa o‘zbek va ingliz folklorini qiyosiy o‘rganish orqali o‘quvchilarda ikki madaniyatni anglash va taqqoslay olish kompetensiyasini rivojlantiradi. Jumladan, o‘zbek xalq maqoli “Mehnat – baxt kaliti”ni ingliz tilidagi “Hard work is the key to success” maqoli bilan yoki “Zumrad va Qimmat” ertagini “Cinderella” ertagi bilan qiyoslash o‘quvchilarga madaniy o‘xshashlik va farqlarni ingliz tilida ifodalash imkonini beradi.

Folklor janrlarini darsga tatbiq etish usullari. Har bir folklor janrining o‘ziga xos didaktik imkoniyatlari mavjud:

Maqollar qisqa, obrazli va mazmunan chuqur bo‘lgani sababli o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyati hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqollar bilan ishlash jarayonida dastlab o‘zbek tilidagi maqol mazmuni tahlil qilinadi, so‘ng unga mos inglizcha ekvivalent topiladi yoki tarjima qilinadi. Keyingi bosqichlarda maqol asosida ingliz tilida qisqa esse, dialog yoki fikr almashuv mashqlari tashkil etiladi. Masalan, “Ilm olmoq – qilichdan o‘tkir” maqoli ingliz tilidagi “The pen is mightier than the sword” maqoli bilan qiyoslanishi mumkin.

Ertaklar esa o‘quvchilarning o‘qish, tinglab tushunish, og‘zaki nutq va ijodiy yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay didaktik material hisoblanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi ertakni soddalashtirilgan ingliz tilida hikoya qiladi, o‘quvchilar esa asosiy so‘z va iboralarni yozib boradilar. Shundan so‘ng ular juftliklarda ertakni qayta hikoya qiladilar hamda ertakning muqobil yakunini ingliz tilida yozib taqdim etadilar. Jumladan, “Zumrad va Qimmat” ertagi asosida yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi sifatlar ustida ishlash, qahramonlarga tavsif berish va rolli o‘yinlar tashkil etish mumkin.

Topishmoqlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, mantiqiy tafakkurini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Dars jarayonida o‘quvchilar

o‘zbek xalq topishmoqlarini ingliz tiliga tarjima qiladilar, keyinchalik esa mustaqil ravishda inglizcha topishmoqlar yaratishga harakat qiladilar. Bunday faoliyat o‘quvchilarning leksik zaxirasini kengaytirish bilan birga, ularning ijodkorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Xalq qo‘shiqlari va laparlar esa musiqa hamda til o‘rganish jarayonining uyg‘unlashuvi asosida fonetik va leksik ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq qo‘shiqlari matnlarini ingliz tiliga tarjima qilish orqali o‘quvchilar yangi so‘z va grammatik birliklarni o‘zlashtiradilar. Shuningdek, ingliz va o‘zbek xalq kuylarini qiyosiy tahlil qilish madaniyatlararo tafakkurni rivojlantiradi. O‘zbek xalq kuylari asosida inglizcha qofiyali misralar yaratish esa o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar bilan integratsiya. Zamonaviy ta’limda raqamli vositalar folklor asosidagi ingliz tili darslarini yanada samarali va jozibali qiladi:

Padlet va Jamboard platformalari o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu platformalar orqali o‘quvchilar o‘zbek xalq maqollarining inglizcha tarjimalarini umumiy interaktiv doskaga joylashtiradilar, bir-birining ishlarini ko‘rib chiqadilar va izohlar yozadilar. Natijada hamkorlikka asoslangan ta’lim muhiti shakllanadi.

Canva va Book Creator dasturlari o‘zbek ertaklarining ingliz tilidagi illyustratsiyali variantlarini yaratishda qo‘llaniladi. O‘quvchilar ushbu jarayonda matn, rasm va sahifa dizayni bilan ishlash orqali ijodiy hamda kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Quizlet platformasi esa folklor asosidagi lug‘at birliklarini o‘rganish va mustahkamlash uchun qulay vosita hisoblanadi. Maqol va ertaklar tarkibidagi yangi so‘zlarni kartochkalar va o‘yin elementlari orqali o‘zlashtirish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

YouTube va podkastlardan foydalanish orqali o‘zbek ertaklarining inglizcha audio va video variantlarini tinglash imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, talaffuz va intonatsiyani tabiiy nutq asosida o‘zlashtirishga yordam beradi.

### **Xulosa**

Milliy o‘zbek folklori asosida ingliz tili darslarini tashkil etish zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda yuqori ta’limiy samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu metodika o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi, ingliz tilini o‘rganishni esa qiziqarli va motivatsion jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning lingvistik, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Folklor namunalarining boy leksik-semantik xususiyatlari yangi soʻzlarni tabiiy ravishda oʻzlashtirish imkonini bersa, raqamli texnologiyalar bilan integratsiya darslarining interaktivligi va zamonaviyligini oshiradi.

Oʻqituvchilar maqollar, topishmoqlar, ertaklar va xalq qoʻshiqlarini kommunikativ, loyiha asosidagi va madaniyatlararo yondashuvlar bilan birlashtirib, ingliz tili darslarini nafaqat samarali, balki maʼnaviy jihatdan boyitilgan taʼlim maydoniga aylantirishlari mumkin. Kelajakda bu yoʻnalishda empirik tadqiqotlar oʻtkazish, folklor asosidagi dars ishlanmalari va oʻquv qoʻllanmalarini yaratish ustuvor vazifalar qatorida turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p.
2. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. — New York: Basic Books, 1983. — 440 p.
3. Holmatova D.N. *Ingliz tili darslarida milliy qadriyatlarni shakllantirish*. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. — 180 b.
4. Krashen S.D. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. — Oxford: Pergamon, 1982. — 202 p.
5. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi Oʻzbekiston strategiyasi*. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. — 302 b.
6. Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — 390 p.
8. Thornbury S. *How to Teach Vocabulary*. — Harlow: Pearson Education, 2002. — 185 p.
9. Toshmatov B. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda folklor matnlarining oʻrni // *Xorijiy filologiya*. — 2022. — №2. — B. 112–119.
10. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
11. Yoʻldoshev Q. *Oʻzbek folklori: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: Fan, 2018. — 248 b.
12. Yusupova Z. *Folklor matnlarida lingvokulturologik aspektlar*. — Toshkent: Akademya nashr, 2022. — 176 b.
- 13.